

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ



**ДЕКАБРЬ
2020**

ТОШКЕНТ, ЎЗБЕКИСТОН



**МАТЕРИАЛЛАР
ТЎПЛАМИ**

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

www.conferences.uz



**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

Norberdiyeva Muyassar Sharipovna TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASIDA KISLORODLI ORGANIK BIRIKMALAR MAVZUSINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH.....	7
Kamilova Sabohat Kavuljonovna UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION KUTUBXONALAR FAOLIYATI AFZALIKLARI.....	10
Jo'raeva Barno Abduxalilovna OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KIMYOVIY TEKNOLOGIK KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	13
Abdullayeva Mazluma Sadikovna, Erkinova Sevinch Jamshidovna O'ZBEGIM QIZLARI.....	16
Quvonova Shaxnoza Saitmuratovna HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI.....	19
Raxmankulova Dilora Gulomovna ZAMONAVIY TA'LIMDA ASTROFIZIKA TARAQQIYOTI.....	22
Toshmurodova Sarvinoz, Mavlonova Madina O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI VA ETNIK TARIXI.....	25
Umida Nishanova Nurmuxammadovna TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI TARIXINI O'RGANISH.....	28
Aliyeva Ravshanoy Zaripovna, Shamsiyeva Mahfuza YOSHLAR TARBIYASIDA AMIR TEMUR MA'NAVIY MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	31
А. Кудрявцев "ВОПРОСЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО КУРАТОРСТВА".....	33
Кўчқаров Абдулазиз Абдурахимович, Сафонова Надежда Анатольевна, Маткаримова Гулбахор Рустамовна ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ТАРИХИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА МАДАНИЯТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	35
Исмоилова Дилдора Эркиновна "ТЎПЛАМЛАР ВА УЛАР УСТИДА АМАЛЛАР" MAVZUSINI ЎҚИТИШДА ПАЗЛ МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	38
Исмоилова Дилдора Эркиновна МАТРИЦАЛАР УСТИДА АМАЛЛАР MAVZUSINI ЎҚИТИШДА "3X4" ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	41
Rasulova Zilola Durdimurotovna PEDAGOGIK FAOLIYAT YONDASHUVI ASOSIDA MODULLI O'QITISH TEKNOLOGIYASINING USUL VA SHAKLLARI.....	44
Ибодова Севарабону Тўхтасиновна ТЕНГЛАМАЛАР СИСТЕМАСИНИ ЕЧИШ УСУЛЛАРИ MAVZUSINI ЎҚИТИШДА БУМЕРАНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ.....	47
Ибодова Севарабону Тўхтасиновна АНИҚ ИНТЕГРАЛЛАР MAVZUSI АМАЛИЙ МАШЎУЛОТИДА "КИЧИК ГУРУХЛАРДА ИШЛАШ" МЕТОДИ.....	50

PEDAGOGIK FAOLIYAT YONDASHUVI ASOSIDA MODULLI O'QITISH TEKNOLOGISINING USUL VA SHAKLLARI

МЕТОДЫ И ФОРМЫ МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

METHODS AND FORMS OF MODULE TEACHING TECHNOLOGY ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY APPROACH

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonlari misolida modulli ta'lim texnologiyasining mazmun mohiyati yoritilgan. Ixtisoslik fanlari bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining blok sxemasi asosida modulli o'qitish shakli ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: modulli o'qitish texnologiyasi, bilim, maqsad, o'qitish, metod, shakl, samaradorlik.


Modulli o'qitish texnologiyasini oliy ta'lim tizimida Texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv jarayonlarida qo'llash maqsadga muvofiqdir [1-8]. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasida modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtiradi:

- o'quv fanining fundamental tushunchalari - muayyan hodisa, yoki qonun yoki bo'lim, yoki yirik bir mavzu, yoki o'zaro bog'liq tushunchalar guruhi;
- o'quv fanining bir yoki bir necha fundamental tushunchalarini o'rganishga (o'zlashtirishga) qaratilgan.

Modul - bu o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi bo'lib, o'quv fanining bir yoki bir nechta fundamental tushunchalarini o'rganishga qaratilgandir.

Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish





Ixtisoslik fanlari bo'yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o'qitish texnologiyasining blok sxemasi

O'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri sifatida modulli ta'lim texnologiyalarida asosiy o'quv maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'qitishning (o'quv fanlar orasida va o'quv fanning ichida) uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- ta'lim oluvchining o'ziga mos sur'atda ishlashi;
- ularga o'z imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'lim mazmunini o'zgaruvchan tarzda qurish;
- uning turli turlari va shakllarini integratsiyalash;
- o'quvchilarda mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning yuqori darajadagi natijalarga erishtirish.

O'z-o'zidan ko'rinadiki, yuqoridagi bayon qilingan maqsadlarning oxirgisi modulli o'qitishning bosh, etakchi maqsadi hisoblanadi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi fanlarini modulli o'qitish bo'yicha tayyorlash metodikasi.

Modulli darsni ishlab chiqishga kirishganda 2 akademik soatni egallashi kerakligini unutmaslik kerak, sababi o'xshash darsda talabaning o'rganiladigan mavzu bo'yicha bilimlari va malakalarining dastlabki darajasini aniqlash, yangi ma'lumotni berish, o'quv materialini ishlab chiqish va chiqish nazoratini o'tkazish zarur. Mashg'ulot modulini tuzishga quyidagi algoritm yordam berishi mumkin:

1. Mavzuda modulli dars o'rnini aniqlash.
2. Dars mavzusini ta'riflash.
3. Dars maqsadini, mazkur holatda bu maqsad - integratsiyalovchi, va oxirgi o'qitish natijalarini aniqlash va ta'riflash.
4. Zaruriy daliliy materialni tanlash.
5. O'qitish va nazorat metodlari va shakllarini tanlash.
6. Talabalarning o'quv faoliyati usullarini aniqlash.
7. O'quv mazmunni alohida mantiqiy yakunlangan o'quv belgilarga ajratish va ularning har biri xususiy didaktik maqsadini aniqlash.

Pedagogning modulli o'qitish darsidagi roli

Modulli o'qitish darsida o'qituvchning roli talabalar ishini boshqarish, qo'yilgan vazifalarni hal etish yo'llarini to'g'rilash, maslahat berish, talabalarga yordam berish va qo'llashdan iborat. Bunda o'qituvchi dars jarayonida har bir talaba bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega.

Modulli dars yakunida xulosalar qilinadi, talabalar mavzuning barcha o'quv belgilari bo'yicha topshiriqlarga xulosalar chiqaradi.

Modulli darsni o'tkazishda talabalarni guruhlariga birlashtirish amalga oshiriladi, bu yerda bir qancha quyi va o'rta darajada biladigan talabalar va hech bo'lmaganda birgina kuchli talaba ishlashi kerak. Shunday qilib, ishlash jarayonida kuchli talaba quyi darajadagi talabaga yordam beradi va bir vaqtda o'z bilimlarini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Расулова З.Д. Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science. 2020, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68.
2. Rasulova Z.D. Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.



8, No. 1, 2020, pp. 30-34.

3. Rasulova Z.D. Conditions and opportunities of organizing independent creative works of students of the direction Technology in Higher Education. International Journal of Scientific and Technology Research. Vol 9, no. 3, 2020, pp. 2552-2155.

4. Расулова З.Д. Значения обучающих технологий направленной личности на уроках трудового обучения. Ученые XXI века, 2018, Т. 47, № 12, С. 34-35.

5. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Компьютерные технологии обучения как важный фактор для улучшения процесса преподавания. Современные инновации. 36:2 (2020), С. 44-46.

6. Каххоров С.К., Расулова З.Д. Роль дистанционного обучения а развитии творческих навыков студентов // Проблемы педагогики. 49:4 (2020), С. 26-29.

7. Каримова М.Н., Расулова З.Д. Использование учебных инструментов в развитии творческого мышления учащихся. Проблемы педагогики. № 5 (50), 2020, С. 19-22.

8. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. № 21 (99), 2020, часть 2, С. 33-36.